




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGI YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



37	Ruxshona XASANBOYEVA, Xorazm xalfachilik san'ati: tarixiy ildizlari, ijro an'analari va zamonaviy talqini	621
38	Munisa ABDULLAYEVA, Bolalar folklori va poetikasi	624
39	Tursımay JORABAEVA, Fitrat pen Axmet Baytırsınıyly shıyg'armalarındag'ı ruhani yndestik pen ag'artushılyq ideyalar	629
40	O'g'ıloy G'ANIYEVA, O'zbek va turk maqollarida badiiy tasvir vositalari	631
41	Umida ABDUXALIQOVA, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida bola obrazi	634
42	Farangiz ESHMO'MINOVA, O'zbek bolalar folklorining o'rganilishi	636
43	Shaxlo MINGNOROVA, Shonazar Shoabdurahmonovning folklorshunoslik faoliyati	638
44	Gulsanam SHOKIROVA (XOLMIRZAYEVA), Uychi shevasi leksikasidan	640
45	Sarvinov XUDOYBERDIYEVA, Norin shevasining ayrim fonetik xususiyatlari	643
46	Manzura MASTONOVA, O'zbek xalq ertaklari va qozoq xalq ertaklarida umuminsoniy qadriyatlar	647
47	Xayrullo ASHUROV, Kulguda aks etgan haqiqat: o'zbek folklorida satira va yumorning ijtimoiy-estetik vazifasi	650
48	Sevinch QURBONNAZAROVA, Xorazm shevasida ko'rsatish olmoshlarining funksional-semantik xususiyatlari	649
49	Sevinch OSTONOVA, Allaning turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o'rni	656
50	Xayriniso ESHMURATOVA, O'zbek shevalarida kiyim nomlari	659
51	Dinora ABIRQULOVA, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida qahramonning safarga chiqish jarayoni tahlili	664
52	Munisa ESHMATOVA, Tohir Malikning "Murdalar gapirmaydilar" qissasida yetimlik muammosi ma'naviy tanazzul sifatida	669
53	Munira JUMANIYOZOVA, Xorazm viloyati hazorasp tumani shevasida kelishik kategoriyasining qo'llanishi	677
54	Ohista RAHIMQULOVA, G'ani Jahongirov va bolalar o'yin folklori	680
55	Durdona ZOKIROVA Marosim folklorining bugungi kundagi ahamiyati va zamonaviylik xususiyati	684
56	Marjona ABDUMAJITOVA Toshkent viloyati shevalarini leksik jihatdan bazi tahlili	686
57	Nigora MENGLIYEVA, O'zbek va turk tillarida 771omatic iboralarning o'rganilish darajasi	689
58	Marjona HAZRATQULOVA, Qorako'l shevasining tasniflardagi o'rni	694
59	Sabrina MUBINOVA, Buxoro shahar o'zbek-tojik shevalarini o'rganilishi	700

O'ZBEK SHEVALARIDA KIYIM NOMLARI

NAME OF CLOTHING IN UZBEK DIALECTS

Xayriniso ESHMURATOVA,

*Termiz davlat universiteti filologiya va tillarni o'qitish
(o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi talabasi*

Xadicha FAYZIYEVA,

*Ilmiy rahbar: Termiz davlat universiteti o'zbek tilshunosligi
kafedrasida dotsenti, f.f.f.d (PhD)*

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/XYPP5768

Annotation. *This article comparatively studies the names of clothing used in various regional dialects of the Uzbek language. During the research, lexical units specific to different regions of our republic are analyzed, and their similarities and differences are identified. In addition, the relationship between clothing names found in dialects and the literary language, as well as their phonetic and lexico-semantic changes, is examined. The main purpose of the article is to reveal the regional characteristics of clothing terminology in Uzbek dialects and to highlight the dialectal richness of the language through their systematic comparison.*

Key words. *Dialects, subdialect, clothing, region, change, names, comparative, oasis, types.*

O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, uning ichki tuzilishi juda boy va murakkab tizimga ega. Bu tizimda shevalar muhim o'rin tutadi, chunki ular tilning tarixiy rivojlanishi, hududiy farqlar hamda xalqning madaniy hayotini bevosita aks ettiradi. Shevalar orqali nafaqat fonetik va grammatik xususiyatlar, balki leksik qatlamning rang-barangligi ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Sh.M.Mirziyoyevning "Ona tilimiz – milliy ma'naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog'idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko'rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir" [Sh.M.Mirziyoyev, 2019: 1-2- sahifalari], degan fikrlari o'zbek tiliga bo'lgan yuksak e'tiborning natijasidir.

O'zbek shevalarining leksik tarkibida, ayniqsa, moddiy madaniyatiga oid so'zlar alohida ahamiyatga ega. Shulardan biri kiyim-kechak nomlaridir. Kiyim-kechak nomlari xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, iqlim sharoiti hamda tarixiy madaniy aloqalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular tiling eng barqaror va qiziqarli qatlamlaridan biri hisoblanadi. Har bir hududda kiyim nomlarining turlicha shaklda qo'llanilishi esa o'zbek shevalarining o'ziga xosligini yanada yaqqol ko'rsatadi.

O'zbekistonning turli viloyatlarida kiyim-kechak nomlari ba'zan adabiy tiildagi shakldan farq qiladi, ba'zan esa butunlay boshqa so'zlar bilan ifodalanadi. Bu holat tarixiy rivojlanish jarayonida yuzaga kelgan fonetik o'zgarishlar, mahalliy an'analar hamda qo'shni tillar bilan bo'lgan aloqalar natijasida shakllangan. Masalan, bir hududda keng qo'llanilgan kiyim nomi boshqa hududda kam uchraydigan yoki boshqa variantda ishlatilishi mumkin. Bu esa shevalararo leksik farqlarning mavjudligini ko'rsatadi.

Kiyim – insonni tashqi ta'sirlardan muhofaza qilish bilan birga uning ijtimoiy taraqqiyoti faktorlari majmuyini o'zida aks ettiruvchi, inson tanasining u yoki bu darajada berkitib, o'rab, bezab turuvchi predmetlar yig'indisidir. Kiyim ijtimoiy hodisa bo'lib jamiyat taraqqiy etgan sayin u ham taraqqiy etib rivojlanib boraveradi. Kiyim insoniyat tarixining ilk davrlarida tashqi ta'sirlardan muhofaza qilish vositalaridan biri bo'lgan bo'lsa, keyinchalik uning vazifa doirasi kengayib boshqa xususiyatlarni ham kasb etadi.

"Kiyim" so'zi ma'nosining tarixiy rivojini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu nom hozirgi ma'noda, ammo boshqa fonetik shakllarda O'rxun-Enisey yozma yodgorliklaridan boshlab XIII-

XIX asrlargacha kadim//kazim//kadgu//kazgu tarzida umuman ustga kiyiladigan libos ma'nosida va turli ma'no nozikliklarda uchraydi. Eski o'zbek tilida kazim variantining kiyim//kayim talaffuziga o'tishi professor C.E.Malov tomonidan to'g'ri aniqlangan[C.E.Malov, 1961].

O'zbek dialektologi Fayziyeva X.Ch. monografiyasida kiyim nomlarini 4 turga bo'ladi [X.Ch.Fayziyeva, 2024: 93-101]:

1. Bosh kiyim
2. Ustki kiyim
3. Ichki kiyim
4. Oyoq kiyim

Bularning har birini shevalar kesimida ko'rib chiqamiz:

- 1.Bosh kiyim

Doppi. Hozirgi o'zbek tili va turkiy tillarning ayrimlarida quyidagicha fonetik va leksik variantlarda uchraydi. Surxondaryoning Qumqo'rg'on tumanida källäpüş, Jarqo'rg'on tumanida käläbaš, Termiz va boshqa tumanlarda doppi, Boysunda ayollar do'ppisi toppi//täkijä//taxija, Surxondaryoning Sho'rchi, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on tumamlarida ayollar kiyadigan maxsus do'ppi kijgič, Samarqandda kijmäčä Boysun, Sho'rchi, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on shevalari misolida [X.Ch.Fayziyeva, 2024: 93-101]deyiladi.

Umuman olganda, do'ppi Farg'ona vodiysida do'ppi, Toshkent shevasida to'ppi, Buxoroda tojiklar va ikki tilli (o'zbekcha va tojikcha so'zlashuvchi) aholi tilida kallapoš /kallavüş, Pastdarg'om, Shahrisabz, Kitob, Samarqandda qalpāq // qalpāγ. Ammo, bu joylarda har xil rangli chit yoki satindan iroqi usulida cho'ziqroq shaklda tikilgan va salla tagidan kiyiladigan do'ppi turi ham kallapoš// kallavüş deb yuritiladi. Shuni ham eslatib o'tish lozimki, qadimiy va eski yozma manbalarda doppi (toppi) so'zlari uchramaydi.Tarixda arabcha taxya//takya, forsha kallapo'sh, turkcha qalpoq so'zlari uchraydi.

“Taqja” so'zining Xorazm shevalarida taxja//tajxa//tejxa//takija kabi fonetik variantlari bor. Samarqand, Shahrisabz va Kitob shaharlarida hamda Samarqand viloyatining Nurota va yana ba'zi boshqa rayonlarida “qalpoq” so'zi “do'ppi [Assomiddinova M., 1981:116] o'rnida ishlatiladi.

Romāl. Bu so'z (fors- tojikcha ro'y-yuz, mol, molidan-surtmoq, artmoq ya'ni, yuzni surtadigan buyum) ma'nosini anglatadi.

Romāl < rojimāl aslida yuz-qo'lni artish uchun mo'ljallangan bo'lsa-da, bu buyum nomi boshga o'raladigan kiyim turi nomiga ham ko'chgan. Keyinchalik, bu nom boshga o'raladigan kiyim turi uchun xoslanib, bet-qo'lni artish uchun mo'ljallangan buyum turi ro'molcha yoki sochiq so'zlari bilan ifodalanadigan bo'ldi.

Surxondaryo viloyatining Boysun, Sho'rchi, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on shevalarida “ro'mol”ning “šarromāl” [X.Ch.Fayziyeva, 2024:95] shakli ham bo'lib,sholdan jundan tayyorlangan ro'mol turiga aytiladi.

Surxondaryoda do'ppining ustidan bog'lanadigan kichik hajmdagi ro'mol turini pešānābānd//pešānāmāt//nāzipešānā, Namanganda dürrä//dürräčä, Toshkentda dākānā//pešānābāy//sallača, Shovotda manglājčä, Samarqandda pešānābānd deyiladi. Bundan tashqari Samarqand, Buxoro va Toshkentda kekxa ayollar boshidan ro'mol tushib ketmasligi uchun unung ustidan buklab-buklab o'rab olinadigan lokkini ham “pešānābāy” deyishadi. Qoraqalpqlarda “ro'mol” “javliq” deyiladi.

Mahmud Koshg'ariyning [DLT, I. 449] asarida ro'mol “sarag'uch” shaklida berilgan, ya'ni sarag'uch-xotinlarning boshga yopinadigan narsalari, ro'molchalari, shaklida.

Alisher Navoiy asarlarida ro'mol burunchuk//burunchak ham ro'mol ma'nosida keladi.

Sochida shabnam **burunchak** e ko'ngil, ermas ajab,

Sunbul uzra gar tushar shabnam taajjub qilmagil [“Xazoyin ul-maoniy”,1960: 209] shaklida qo'llanilgan.

Qalpoq//bo'rk. Qadimiy kiyim formasi bo'lib, u arxeologik qazilmalarda topilgan rasm va haykallarda ham uchraydi. Mahmud Koshg'ariyning asarida

[DLT.I, 454] asarida **sukurlay bo'rk** (uzun qalpoq) shaklida uchraydi. Bu hozirda Qoraqalpog'iston Respublikasida ko'proq uchraydi. Ularda erkaklar kiyadigan bosh kiyimini **qalpoq**, ayollar to'y va marosimlarda kiyadigan uzun bosh kiyimni **saukulu** deb ataydilar.

2.Ustki kiyim.

Kojlāk. Ko'ylak qadimiy turkiy so'z bo'lib XI asrdan shu davrgacha bo'lgan yozma manbalarda turli fonetik variantlarga uchraydi: ko'mlak//ko'nglak//o'glak// kunlek hatto konchak varianti ham uchraydi. Hali to'qimachilik yuzaga kelmagan eng qadimiy zamonlarda turkiy elatlarning ko'chmanchi ota-bobolari(to o'troqlashish davrigacha) liboslarni teridan tikib kiyishgan. Bunday kiyimlar qoldig'i arxeologik qazilmalardan ma'lum. Akademik V.V. Radlov rahbarligida Oltoy o'lkasida o'tqazilgan ekspeditsiyada eradan oldingi II asrga oid teridan tikilgan ko'ylaksimon libos, **po'stin** topilgan.

“Kojlāk” so'zining fonetik variantlari o'zbek shevalarida ham uchraydi: Surxondaryoda kojlāk, Toshkent, Samarqand shevalarida kojne(y)//kojnāk, Farg'ona vodiysida kojnāk//kojlāk, O'zbek tilining o'g'uz-qipchoq va qorluq guruppa shevalarida yalang qavatini kojlāk, paxta solib tikilgan qishlik turini – **kürtä**, bolalar kiyadigan qishlik ko'ylak turini – **kurtäcä** deb yuritilgan.

Yuqorida po'stin hayvon terisini yopinib yurib, ularni ko'ylak sifatida olishgan dedik. Mahmud Koshg'ariyning DLT asarida “ko'nxom teri” deb atalgan. Bundan tashqari asarda bog'mak- ko'ylak bog'ichi (qadimda ayollar ko'ylagining yuqori qismidan pastga bir qarich chok ochilib, chokning tepa bo'yin sohasida maxsus ip bo'lgan va shu bilan bog'lab qo'yishgan) degan so'z ham uchraydi [DLT, I. 433.]

güppi. Surxondaryo viloyati Boysun, Sho'rchi guruh shevalarida **guppy** [X.Ch.Fayziyeva 2024:96]-bolalarning paxtali yengsiz ustki kiyimi, Surxondaryoning Termiz shevasida **nimcä** (Qarshi, Buxoro viloyatlarida teng o'g'irlik o'lchovi[“O'zbek xalq shevalari lug'ati”. 1971:197] Sayrob shevasida gopäcä, qolgan tuman shevalarida güppi// goppi tarzida uchraydi.

Väskärčä. Surxondaryo viloyati Boysun, Sho'rchi shevalarida **väskärčä** [X.Ch.Fayziyeva, 2024: 96] Qashqadaryo, Samarqand shevalarida güppi//güppi ton shaklida, Magmud Koshg'ariyning [DLT,I. 123] asarida “artig” (xotinlar kiyadigan želetka, nimcha) shaklida uchraydi.

Čäpän, ton. Qadimgi yozma manbalar tilida to'n so'zi ustki kiyim, chopon, chakmon, po'stin ma'nolarini anglatgan. Chopon turkiy xalqlarning asosiy ustki kiyimi hisoblanadigan paxtalik to'nning sinonimidir. To'n keng ma'noda avra to'n, avra-astar to'n paxtalik to'nni ifodalasa, chopon ko'proq paxtalik to'n ma'nosida qo'llaniladi. Bu so'z Surxondaryoda ton//čäpän, Xorazmda do'n, Qashqadaryoda chopon, Farg'onada chokit, Samarqandda chopan tarzida ishlatiladi.

Mahmud Koshg'ariyning [DLT, I. 408] asarida “kaftan” (to'n, ustki kiyim), “ichmak”(qo'zi terisidan qilingan po'stin) shaklida uchraydi. Bundan tashqari choponning chekmon //chepkan shakli ham mavjud.

Belbāy. Belbāy turkiy so'z bo'lib “bel” odamning o'rta qismi, “bog'” bog'lana digan narsa. Belbog' XI asr tilida qur//qurshag' so'zlari bilan ifodalangan. Aslida “quršay” qurshamoq (o'ramoq) fe'lidan olingan bo'lib M.Koshg'ariy[DLT, I. 432] ning asarida bu so'z yana o'tov ustidan aylantirib bog'lanadigan jiyak, o'tov jiyagi, arqon kabi ma'nolarda ham ishlatilgan.

XIV-XV asr va so'ngi davrlar manbalarida qur//belbāy//po'ta so'zlari uchrab turadi. A. Borovkov “qur” so'zini belga bog'lanadigan belbog' [Assomiddinova M., 1981:34] deb izohlagan. Qur//qurshov// belbog' so'zlarining tarixiy rivoji yuzasidan o'tqazilgan kuzatishlar “qur” so'zi o'rniida keyingi davrlarda belbog' qo'llana boshlaganini ko'rsatadi. Surxondaryoda belbāv//belqars, Qashqadaryoda qars//belqars//belbāq//qī:jī:q, Namangan Uychi shevalarida belbāy, Toshkent, Chorsi shevasida belbāy//qī:jī:qčä, Andijon, Farg'onada belvāk//belvāk//belbāy, Chorsida qī:jī:q, Buxoroda ropäkčä//qars, Vopkentda ropäkčä. Bulardan tashqari tojiklar bilan aralash yashovchi ayrim o'zbeklar, masalan, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryoda mijānbānd//ropäkčä deb yuritiladi. Fors-tojikchada miyonband- “miyon”- bel, “band”, “bastan” bog'lamoq, o'ramoq degan ma'noni anglatadi.

Čontak, kissä. O'zbek tilida "kissa" birinchi ma'noda: og'zi bog'ichli pul soladigan xaltacha, ikkinchi ma'noda: kiyim qismi-cho'ntakni anglatadi.

Shevalarda cho'ntak so'zi o'rniida kissa qo'llaniladi. Masalan Surxondaryo: Boysun, Sho'rchi, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on shevalarida kissä//kistä [X.Ch.Fayziyeva, 2024: 98]. Qashqadaryo, Andijon, Qo'qonda kistä, Xorazmda kissä//kijä, Toshkentda čontej//čončej shaklida qo'llaniladi.

XVI asrdan so'ng asosan "cho'ntak" so'zi umumlasha borgan. Fikrimizcha, bu XVI asrda va undan so'ng Dashti Qipchoqdan ko'chib kelgan ko'chmanchi o'zbeklar tilining ta'siri bo'lsa kerak. Mahmud Koshg'ariyning [DLT, I. 444] asarida "kunchuk" (kissa, cho'ntak) shaklida uchraydi.

Tüjma. Qadimiy turkiy so'z. Mahmud Koshg'ariyning [DLT, I. 406] asarida "tugma" (ko'ylak, chopon va qalpoqlar bog'ichi tugmasi) shaklida uchraydi. Navoiy asarlarida tugma kiyimlarga qadaladigan buyumdan tashqari, turli la'l, yoqut singari javharlardan tayyorlangan kiyimlarga bezak berish uchun taqiladigan ashyoni ifodalagan. Bu so'z Surxondaryoda **tügmä//tüjmä**, Farg'ona, Qo'qon, Andijonda **tüjmä**, Namanganda **tüjmä//tümä**, Toshkentda **tüvmä**, Shahrisabz va Samarqandda **sadaf//sadap//tume**, O'shda **tüjme//tüme**, Xorazmda **tüjmä**, O'g'uz gruppasi tillari da **düjmä//tüvmä//ilig**, qipchoq tillarida **topču**, markaziy o'zbek shevalarida **tüjmä//tüjmä//tümä** tarzida qo'llaniladi.

3. Ichki kiyim.

Lāzim, ištān. Ishton tirkiy so'z bo'lib yozma manbalarda XI asrdan ma'lum. XI asr tilida bu nom "um" (ishton, lozim, cholvar) tarzida ham uchraydi. XV asrdan e'tiboran ishton so'zi bilan birga, arabcha "lozim", forsha "izor", "poyjoma", shuningdek tunbon so'zlari ham qo'llanila boshladi. Ishtonning keng tikilgan turi shevada čālvār deyiladi. Bu so'z Surxondaryoda **lāzim//pājžāma**, Qahqadaryoda **pājžāma**, Buxoroda **pājžāma** [X.Ch.Fayziyeva, 2024: 98]. Shaklida uchraydi. Mahmud Koshg'ariyning [DLT, I. 133] asarida "otran" (ishton, lozim- yabg'o qabilasidan eshitdim, deydi) shaklida uchraydi.

Bundan tashqari lozimning o'rta qismiga tikiladigan qismi Surxondaryoda **āy**, Xorazm va boshqa shevalarda **ag** shaklida uchraydi. Mahmud Koshg'ariyning [DLT I, 82] asarida "**og**" deb – chodirning yuqori qismida bo'lgan uzuqlar, chodir tepasiga aytiladi. Ayollar lozimining pastki qismiga **čirāz** qo'shib tikishadi. Bu Surxondaryo shevalarida **čirāz//čiraz**, Qashqadaryo va boshqa shevalarda **kānt** deb yuritiladi [X.Ch.Fayziyeva, 2024: 98].

4. Oyoq kiyim.

Mokki. Mol terisidan tayyorlangan qishlik erkaklar oyoq kiyimi. Bu so'z Surxondaryo shevalarida **mokki//mukki**, Buxoro, Qashqadaryoda **mokki** tarzida uchraydi. Mahmud Koshg'ariyning [DLT, I. 96] asarida "**etuk**" tarzida qo'llaniladi. Bundan tashqari asarda, **bukum//bukum etik** [DLT, I. 376] (xotinlar kiyadigan etik, maxsi (o'g'uz), o'g'uzlardan boshqalar **mukim//mukin** deyilar. Toza turkcha deb hisoblamayman. Lekin qipchoq va oddiy qabilalar oddiy kishilari shunday ataydi deydi) ham oyoq kiyim tarzida qo'llanilgan.

Maqolada o'zbek shevalarida qo'llaniladigan kiyim-kechak nomlari va ularning hududlar bo'yicha farqlanishi haqida qisqacha to'xtalib o'tdik. Bu jarayonda kiyim nomlarining bir hududdan ikkinchi hududda o'tishda o'zgarib borishi, ba'zi so'zlarning turlicha shaklda qo'llanilishi va ayrimlarining esa umumiy ko'rinishda saqlanib qolishini guvohi bo'ldik.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek shevalaridagi kiyim-kechak nomlari juda boy va rang-barang bo'lib, ular xalqning kundalik hayoti, yashash sharoiti va an'analari o'zida aks ettiradi. Har bir viloyat yoki hududda kiyim nomlarining o'ziga xos aytilishi mavjud bo'lib, bu tilning tabiiy rivojlanish jarayoni bilan bog'liq. Shuningdek, kiyim-kechak nomlaridagi farqlar nafaqat lingvistik hodisa, balki xalqning madaniy merosi va tarixiy shakllanish jarayoni bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shevalar orqali biz xalqning turmush tarzi va dunyoqarashi haqida ham ma'lum tasavvurga ega bo'lamiz.

Umuman olganda, o'zbek shevalari leksikasida shunday so'zlar borki, ularni mumtoz adabiyot asarlarida uchraydigan so'zlar bilan qiyoslab o'rganish hozirgi adabiy tilimizdagi

ko‘pgina izohtalab masalalarga aniqlik kiritishda katta ahamiyat kasb etadi. Shevalarning leksik boyligi umumxalq o‘zbek tilining asosiy lug‘at fondi va umumiy lug‘at tarkibidagi so‘zlarni tashkil qiladi. Shu bilan birga, ularda o‘ziga xos so‘zlar, atamalar ham mavjud bo‘lib, bunday so‘zlar adabiy til va uning ko‘pchilik shevalarida uchramaydi. Kiyim-kechak nomlarini o‘rganish tilshunoslik uchun ham, madaniyatni tushunish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Ozbek xalq shevalari lug‘ati”. – Toshkent: 1971 (221-bet)
2. Assomiddinova. M. “Kiyim-kechak nomlari”. – Toshkent: 1981 (116-bet)
3. Fayziyeva. X.Ch. “Surxondaryo o‘zbek shevalari lug‘at xususiyatlari (Boysun, Sho‘rchi, Qumqo‘rg‘on, Jarqo‘rg‘on shevalari misolida). Monografiya. – Termiz ILM-21 nashriyoti. 2024, 93-101 b.
4. Malov S. Ye. Uygurskiye narechiye Sinzyana. – M., 1961.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli / Xalq so‘zi, 2019-yil 22-oktyabr. 218-son, 1-2-sahifalari.

Shartli qisqartmalar

6. DLT – Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” I-II-III tomlar (Mutallibov S. Tarjima qilgan). – Toshkent, 1960-1963.

